

ARAB ALIFBOSIGA ASOSLANGAN CHIG‘ATOY (O‘ZBEK) TILI YOZUVI VA UNING AHAMIYATI

Qaraboyeva Mahliyo Suxrob qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi, Karabayevamahliyo82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvi va qo‘lyozmalarni o‘rganish masalalari yoritilib, mavjud o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning holati hamda ularning ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, nashrlar kamligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog‘liq muammolar ko‘rsatilib, eski o‘zbek yozuvini o‘rganish va qo‘lyozma merosni tadqiqotlarga keng jalb etish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Qadimgi yozuvlar, arab yozuvi, eski o‘zbek yozuvi, Chig‘atoy tili va yozuvi, qo‘lyozmalar, krill yozuvi, lotin yozuvi.

ЧАГАТАЙСКОЕ (УЗБЕКСКОЕ) ЯЗЫКОВОЕ ПИСЬМО НА ОСНОВЕ АРАБСКОГО АЛФАВИТА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы изучения староузбекской письменности и рукописей, основанных на арабской орфографии, анализируется состояние существующих учебно-методических пособий и их научно-практическое значение. Также указываются проблемы, связанные с нехваткой публикаций и ограниченными возможностями их использования, обосновывается необходимость изучения староузбекской письменности и широкого вовлечения рукописного наследия в исследования.

Ключевые слова: Древние письмена, арабское письмо, староузбекское письмо, чагатайский язык и письмо, рукописи, кириллица, латиница.

CHAGATAY (UZBEK) LANGUAGE SCRIPT BASED ON THE ARABIC ALPHABET AND ITS IMPORTANCE

Abstract. This article covers the study of old Uzbek writing and manuscripts based on Arabic script, analyzes the state of existing educational and methodological manuals, and their scientific and practical significance. Also, problems related to the scarcity of publications and the limited possibilities of their use are indicated, and the need to study the old Uzbek script and widely involve manuscript heritage in research is substantiated.

Keywords: Ancient scripts, Arabic script, Old Uzbek script, Chagatai language and script, manuscripts, Cyrillic script, Latin script.

O‘zbek alifbosi – o‘zbek tilining yozma ifodasi uchun xizmat qiluvchi harflar tizimidir. O‘zbek yozuvi tarix davomida bir necha bosqichdan o‘tgan. Xususan, arab yozuvi joriy etilishidan avval Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda turli yozuv tizimlari mavjud bo‘lgan. Qadimgi davrlarda bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishi yozuvga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Shunga ko‘ra, turli davrlarda va turli xalqlar tomonidan bir nechta yozuvlar qo‘llanilgan.

Eng qadimgi yozuvlar qatoriga mixxat va oromiy yozuvi kiradi. Oromiy yozuvi keyinchalik ko‘plab mahalliy yozuvlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Miloddan avvalgi va milodiy dastlabki asrlarda Markaziy Osiyoda so‘g‘d, xorazm, baqtriya yozuvlari keng tarqalgan bo‘lib, ular asosan ma‘muriy hujjatlar, savdo bitimlari va diniy matnlarni yozishda ishlatilgan. Turk xalqlari orasida esa run (Orxon-Yenisey) yozuvi muhim o‘rin tutgan bo‘lib, u siyosiy va tarixiy mazmundagi bitiklarda qo‘llanilgan.

Ushbu yozuvlar hududning boy madaniyati, davlatchilik an‘analari va yozma tafakkurining rivojlanganidan dalolat beradi. Keyinchalik islom dinining kirib kelishi bilan arab yozuvi keng yoyilib, asta-sekin avvalgi yozuvlarni siqib chiqargan.


VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyo yozuvlari arab yozuvi asosida yangi shakl kasb etdi va bu jarayon XX asr boshlarigacha davom etdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyoning aksar qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng imperiyaning tasarrufidagi “Turkiston general-gubernatorligi” davlat boshqaruvida rus tili va yozuvi qo‘llanilishi boshlangan. Shuningdek mahalliy boshqaruvda esa arab yozuviga asoslangan mahalliy yozuvdan faol foydalanilgan. Bu holatni o‘sha davrdagi rasmiy xujjarlar va mavjud matbuot materiallardan ham tushunish mumkin.



1-rasm. Turkiston viloyati geazeti. 1889-yil 1-aprel soni. Gazeta matnlarida maqolalar ruscha va mahalliy til va yozuvda yonmayon keltirilgan.

Qayd qilish kerakki, 1929-yilgacha o‘zbek tilidagi matnlar arab imlosida yozilgan. 1929-yilda o‘zbek tili katta o‘zgarish - lotin yozuviga o‘tishni boshdan kechirdi. 1940-yilda o‘zbek lotin alifbosi kirill alifbosiga almashtirildi.[1].

Maaruf və Oqutquscı



2-rasm. Maarif va o‘qituvchi gazetasi 1929-yil noyabr oyidagi sonining birinchi sahifasi va mundarijasi. Matnlar lotin yozuviga asoslangan chig‘atoy (o‘zbek) tilida yozilgan.

Bu sanda boʻlganlar:

Bam maqala Siyasat—siyosat	1—Oni iki jai adolida qora pedagogikali 2—20-20-inci jai adolida qora pedagogikali 3—Lafsanlar taraja lom pedagogikali 4—Muxarlar kengashi va oquscı muxarlar 5—Cavriyat, qatlad va rajarat 6—Aqarlar ishlarini usullari ishlatil 7—15-inci asrni erki falsafasiga qara harakat va ummi pedagogikali ta'viri 8—1-inci asrni qatlad rajarat rajarat ishlatil 9—“Giy” programmasini talaba ishlatil 10—Qatlad ishlarini ishlatil ishlatil ishlatil 11—Samarqand maktablarida bir sinfda iki jai qatlad ishlatil 12—Bir sinfda iki jai qatlad ishlatil ishlatil 13—Qatlad ishlarini ishlatil ishlatil ishlatil 14—Ishlatil ishlatil ishlatil ishlatil ishlatil 15—Jani turk alifbasini ishlatil ishlatil 16—Aj 17—Ishlatil ishlatil 18—Ishlatil ishlatil ishlatil ishlatil 19—Falsafasiga ishlatil 20—Qatlad ishlarini ishlatil ishlatil ishlatil 21—Nurkiston ishlatil	Altaj O. Beregin N. Sajidli Turqun Mallin Narskkin Prof. E. N. Medanski Ratul O. Davids Sukac Aravz Jasir b. Tahir F. Agazada O. Abd S. Sadik Z. Osman P. Seran
-------------------------------	--	--

Qayd qilish kerakki, 1929-yilgacha o'zbek tilidagi yozma meros asosan arab imlosida yaratilgan bo'lib, u asrlar davomida shakllangan diniy, ilmiy va adabiy an'analar bilan uzviy bog'liq edi. 1929-yilda o'zbek tilining lotin yozuviga o'tkazilishi avvalgi yozma meros bilan bog'liqlikning zaiflashishiga olib keldi. 1940-yilda esa lotin alifbosining kirill yozuviga almashtirilishi yozuv sohasida ikkinchi uzilish yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada jamiyat qisqa vaqt ichida uch xil yozuv tizimini boshdan kechirdi, bu esa avlodlararo madaniy uzviylikning susayishi, tarixiy manbalarni o'qishdagi qiyinchiliklar va ilmiy merosdan foydalanishning cheklanishiga olib keldi. Shu bilan birga, yozuv almashinuvi til siyosatining siyosiy-ideologik xarakterga ega bo'lganini yaqqol namoyon etdi.

Mustaqillikdan so'ng, 1993-yilda O'zbekiston Respublikasida lotin grafikasi asosidagi o'zbek alifbosi rasman qabul qilindi[2]. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining lotin yozuviga o'tkazilishi milliy til siyosatida muhim va ramziy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy qaror bo'ldi. Avvalo, bu jarayon o'zbek tilining mustaqil davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlab, uni sobiq mafkuraviy ta'sirlardan xalos etishga xizmat qildi. Lotin yozuvi o'zbek tilining fonetik xususiyatlariga nisbatan mosroq bo'lib, talaffuz va yozuv o'rtasidagi uyg'unlikni kuchaytirdi hamda savodxonlik jarayonini soddalashtirdi.

Shuningdek, lotin yozuviga o'tish O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini tezlashtirdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, internet, ilmiy nashrlar va xalqaro aloqalarda lotin grafikasi keng qo'llanilishi o'zbek tilining raqamli makondagi imkoniyatlarini kengaytirdi. Yangi avlod uchun xorijiy tillarni o'rganish, ilm-fan va texnologiya sohalaridagi yangiliklarni o'zlashtirish osonlashdi.

Eng muhimi, lotin yozuvi milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qayta tiklash va kelajakka zamonaviy tafakkur bilan qarash imkonini beruvchi muhim madaniy omilga aylandi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, arab imlosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi (chig'atoy) o'zbek xalqining ko'p asrlik madaniy, ilmiy va ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu yozuv tizimi orqali turkiy xalqlarning boy adabiy merosi, tarixiy hujjatlari, diniy-falsafiy asarlari hamda ilmiy risolalari yaratilib, avloddan avlodga yetkazilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Lutfiy, Ogahiy kabi mutafakkirlarning asarlari aynan shu yozuvda bitilib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojiga mustahkam zamin yaratgan.

Bugungi kunda arab imlosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi tarixiy xotirani anglash, milliy merosni chuqur o'rganish va manbashunoslik tadqiqotlarini olib borishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Uzoq asrlar davomida yaratilgan ulkan ma'naviy merosimizning qo'lyozma matnlari manbashunoslik, tarixshunoslik va filologiya fanlari uchun bebaho xazinadir. Ularni o'rganish, saqlash va ilmiy muomalaga kiritish milliy merosni asrash, tarixiy uzviylikni tiklash va madaniy o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo, hozirgi kunda mavjud muammolar sirasiga arab imlosida yozilgan qo'lyozmalarni o'qishga o'rgatuvchi mufassal qo'llanmalar yaratilishiga kam e'tibor berilmoqda. Bu borada R.Jumaniyozovning 1989-yilda nashrdan chiqarilgan "Eski

o‘zbek yozuvi” kitobi[3] va 1994-yilda A.Shermatov tahriri ostida nashrdan chiqqan O‘qish kitobi[4] kabilar turkiy tildagi qo‘lyozmalarni o‘qishni o‘rganishda qulay manba bo‘lsada, bular lotinchada qayta tahrirdan chiqmagan, bundan tashqari ushbu kitobni kitob do‘konlardan topishning iloji ham yo‘q.

So‘ngi yillarda M.Hamidova va N.Sulaymonova hammuallifligidagi Eski o‘zbek yozuvi kitobi[5], F.Ishoqovning “Eski o‘zbek tili va yozuvi” kitobi[6], A.Erkinovning “Matnshunoslikka kirish” nomli qo‘llanmasi[7], M.Rahmatovning “Eski o‘zbek yozuvi praktikumi va sharq tillari” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi[8] kabi kitoblar ham nashrdan chiqqan bo‘lib, bu asarlarni ham kitob do‘konlaridan aksariyat hollarda topib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, arab imlosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvida bitilgan boy qo‘lyozma merosini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo bo‘lib qolmoqda. Mavjud qo‘llanmalarining cheklanganligi va lotin yozuvida qayta ishlanmagani yosh tadqiqotchilar va talabalar uchun jiddiy to‘siq tug‘dirmoqda. Bu holat arab imlosidagi manbalarni mustaqil o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib kelmoqda. Shu bois, qo‘llanmalarni lotin yozuvida qayta nashr etish, ularni elektron formatda keng ommaga taqdim etish hamda oliy ta’limda maxsus kurs va amaliy mashg‘ulotlarni yanada kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Azimov J. Og‘riqli harflar. 30 yilga cho‘zilgan o‘zbek alifbosi islohoti./https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/14/
2. 1993-yil 12-oktyabr. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. <https://lex.uz/docs/-112286?ONDATE=12.10.1993>
3. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. Тошкент. Ўқитувчи. 1989
4. Ўқиш китоби. Эски ўзбек ёзуви наъмуналари. Тошкент. Ўқитувчи. 1994
5. М. Хамидова. Н Сулаймонова. Эеки ўзбек ёзуви. Услубий қўлланма. Тошкент. «Yurist-media markazi» 2009 йил
6. Исҳоқов. Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. Тошкент. Ўқитувчи. 1995
7. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма. Тошкент. 1997
8. Rahmatov M. Eski o‘zbek yozuvi praktikumi va sharq tillari. Birinchi kitob. o‘quv-uslubiy qo‘llamna. Toshkent. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2015-y.